Sifatli ta'lim-yorqin kelajak
ISSN: 3060-4761

TerDPI ILMIY XABARNOMASI
SCIENTIFIC BULLETIN OF THE TerSPI
НАУЧНЫЙ ВЕСТНИК ТерГПИ

www.xabarnoma.terdpi.uz

UDK:82.09(075.8)
ORCID:0000-1234-5678-9101

NAZAR ESHONQUL HIKOYALARIDA BADIIY TASVIR VA UNING MUHIM JIHATLARI.

Saidmuradova Soxiba Jalmurodovna
Termiz davlat pedagogika instituti
"O'zbek tili va adabiyoti" kafedrasi dotsenti, f.f.f.d.
E-mail: Ssaxiba69@gmail.ru

ANNOTATSIYA. Yozuvchi Nazar Eshonqul - bugungi o'zbek adabiyotida o'ziga xos betakror so'ziga, ijod falsafasiga hamda estetik qarashlariga ega iste'dodli ijodkor. Bugungi yosh avlodning mustahkam irodali, yuksak axloqli va erkin, hur fikrli bo'lib ulg'ayishi –barcha istaklardan ustun. Shu nuqtai nazardan Nazar Eshonqul hikoyalari tiliga lingvistik tahlil metodi nuqtai nazaridan qarab, bu kichik janrdagi asarlar personajlari nutqida xalqona betakror so'z va iboralarni, o'ziga xos nutqiy qurilishni, lingvistik vositalar yordamida asarning g'oyaviy, emotsional qirralari, psixologik jarayonlarni kuzatish mumkinligi mazkur maqolada ta'kidlab o'tiladi.

Kalit so'zlar: estetik qarashlar, psixologik tahlil, lingvistik tahlil, ruhiy kechinmalar, aql-idrok, lingvistik vositalar," dominanta " so'z, inson ongi

ХУДОЖЕСТВЕННЫЙ ОБРАЗ И ЕГО ВАЖНЫЕ АСПЕКТЫ В РАССКАЗАХ НАЗАРА ЭШАНКУЛА.

АННОТАЦИЯ. Писатель Назар Эшонкул — талантливый художник с уникальным словом, творческой философией и эстетическими взглядами в современной узбекской литературе. Прежде всего, сегодняшнее молодое поколение вырастает волевым, нравственно стойким и свободомыслящим. С этой точки зрения в статье подчеркивается, что, рассматривая язык рассказов Назара Эшонкула с позиции метода лингвистического анализа, можно наблюдать уникальные народные слова и выражения, уникальный речевой строй, а также идейно-эмоциональные аспекты произведения, психологические процессы, отраженные языковыми средствами в речи персонажей этого малого жанра произведений.

Ключевые слова: эстетические взгляды, психологический анализ, лингвистический анализ, духовные переживания, интеллект, языковые средства, «господствующее» слово, человеческое сознание.

ARTISTIC IMAGE IN THE STORIES OF NAZAR ESHANKUL AND ITS IMPORTANT ASPECTS.

ANNOTATSIYA. Writer Nazar Eshankul is a talented writer with a unique word, philosophy of philosophy and aesthetic views in modern Uzbek literature. The development of today's young generation with strong will, high morals, free and free thinking is above all desires. This article emphasizes the possibility of observing the structure of the speech, the ideological, emotional aspects of the work, the psychological processes with the help of linguistic means.

Keywords: aesthetic views, psychological analysis, linguistic analysis, mental experiences, cognition, linguistic means, "dominant" word, human consciousness.

Sifatli ta'lim-yorqin kelajak
ISSN: 3060-4761

TerDPI ILMIY XABARNOMASI
SCIENTIFIC BULLETIN OF THE TerSPI
НАУЧНЫЙ ВЕСТНИК ТерГПИ

www.xabarnoma.terdpi.uz

KIRISH. Iste`dodli adib Nazar Eshonqul – zamonaviy milliy adabiyotimizning yorqin vakili, o'z yo`nalishi va usuliga, ijod falsafasiga ega iqtidorli ijodkor.Yozuvchi davr bilan hamohang: botiniy ochun hamda insonning ong osti sarhadlarini yaxshi bilgani holda bugungi kitobxonga manzur asarlar - roman, qissa va hikoyalar yozayotgan serqirra iste'dod egasi. Biz yangi Renesans ostonasida turar ekanmiz, zamonaviy yoshlarimizning irodali, yuksak axloqli va erkin, hur fikrli bo'lib voyaga yetishi – barcha istaklardan ustun. Betakror ijodkor Nazar Eshonqul fikricha ,"…mustahkam va kuchli e'tiqodli yozuvchigina millat va vatan uchun bugun va ertaga ham o'qiladigan,kuylanadigan hamda sharaflanadigan so'z yarata oladi, ko'z o'ngimizdagi voqelikni ijodkor olami bilan bog'lay oladi.Yuzakilikka o'rgangan tasavvurlarni yorib o'tib, o'zining yuksak e'tiqod va go'zallik dunyosini yaratadi". [**1.B-177**]Yunon notiqlari tilida **yozuvchi qalbi** bejizga"**ilohiyot nuri tushgan qalb**" deb atalmagan. Bu ilohiy qalb xiyonat, adolatsizlik, nopoklikdan titrab ketadi va aldangan dunyoni poklashga kirishadi. Darhaqiqat, bugungi kun sayin yangilanib borayotgan yangicha dunyoda badiiy va estetik so'z ham, adabiyot olami ham, insonlar ham yangilanib boraveradi. Inson doimo teran fikrlashdan to'xtamasligi, tevarak – atrofga hushyor nazar solishi, aqlli fikr-mushohada qilishi: o'z ichki ruhiy kechinmalarini tahlil qilib borishi: ruhiyatidagi ayrim kichik illatlarni yuzaga chiqishiga yo'l qo'ymay, aksincha aql-idrokini charxlab borishi lozim.

ADABIYOTLAR TAHLILI VA METODLAR.

Yozuvchi qalamiga mansub "San`at-1", "Istilo","Momoqo`shiq"," Yalpiz hidi","Haykal" singari yuqori iqtidor va badiiy mahorat ila yozilgan qissa va hikoyalar ijodkor badiiy tafakkurining hosilasidir. Nazar Eshonqul asarlari tiliga lingvistik tahlil metodi orqali qaraydigan bo'lsak, bu kichik ijod namunalari personajlari nutqida o'ziga xos so'z va iboralarni, betakror nutqiy qurilishni, lingvistik vositalar yordamida asarlarning g'oyaviy, emotsional qirralari hamda psixologik jarayonlarini kuzatish mumkin.

Mazkur metod orqali o`tkazilayotgan tahlilda qissa va hikoyalardagi "dominanta " so'zlarni ajratib o'rganish muhim ahamiyat kasb etadi. So'zning har qanday badiiylashtirilgan shakli, u og'zaki yoki yozma bo'lishidan qat'iy nazar, inson ma'naviy-psixologik olamiga ta'sir o'tkazishi jihatidan muhimdir. Masalan, yozuvchining "Shamolni tutib bo'lmaydi" hikoyasidagi "yulg'unzor" ,"oftobro'ya" ,"mustag'riq","ravoqli","yolg'izlikning ko'r musibati","qonli halqob", "yillar uqalay-uqalay jimitdek qilib qo'ygan gavdasi, "muztar go'sha" kabi turli poetik so'z va birikmalar alohida ajralib turadi. Bosh obraz - Bayna momoning xarakteri- dagi o'ziga xosliklarni: hayot mashaqqatlari ezib qo'ygan jussasini zo'rg'a ko'tarib yursada, fe'lida qo'rslik va qat'iyat mujassam inson qiyofasini ko'rish mumkin. Bayna momo turmush o'rtog'ining va o'g'lining shafqatsizlarcha o'ldirilishiga tomoshabin bo'lib turgan hamqishloqlariga bir umr ko'nglida kek saqlab, ulardan alamzada bo'lib yurdi - "bu qishloqda erkak yo'q", "bu qishloqning ayollari endi faqat hezalak tug'adi"- deya ranjib yurdi.

Bayna momoning g'am-anduhi hech susaymas, musibati shu qadar ulkan ediki; uning ifori butun jismi-yu kichik jussasiga, hattoki kiyimlariga ham o'rnashib ketganligini yozuvchi bot-bot takrorlaydi. Momo polvonligi bilan butun qishloqning ori bo'lgan eri Rayim pilvonning hamda hech aybini bilmay o'lib ketgan yolg'iz farzandining o'limini hech ko'z oldidan ketkaza olmadi. Hikoya hajm jihatidan katta bo'lmasa-da, mazmunan salmoqdor - badiiy pishiq

yaratilganligidan kitobxonlarning sevimli asariga aylanib ulgurdi.

"Maymun yetaklagan odam" hikoyasida esa, "ro'dapo chol", "chirkin, badbo'y va shilta hid", "badjahl ma'bud" kabi poetik, psixologik elementlar asarning g'oyaviy mazmuniga o'zgachalik bag'ishlab turibdi. Asarda personaj ruhiyatining hatti - harakatlari, gap- so'zlari, mimikasi, undagi fiziologik o'zgarishlarni ko'rsatish orqali ochib berilishi **bilvosita** psixologik tasvirdir. Nazar Eshonqul tomonidan yozilgan bu hikoyalarda inson ruhiyatining qavat - qavat sirlari ochilgani, ijodkor tomonidan badiiy psixologizmning xilma-xil usul va vositalari qo'llangani ham ayni haqiqat. Yozuvchi "Maymun yetaklagan odam" hikoyasida suratkash qo'shni cholning ajinlar taram-taram qilib tashlagan, ko'rimsiz yuzi badjahl ma'budlarning haykaliga o'xshashi, ko'zlari hissiz va ifodasiz, go'yo necha qadam umri qolganini o'lchab yurgandek og'ir qadamlar bilan yurguvchi, qoboqlari ostidan odamlarga adovat bilan tikilib-tikilib qo'yguvchi; nochor holiga ham qaramay, odamlarga kibr aralash dimog'-firog' bilan, shubha bilan qarab qo'yguvchi cholning portretini so'z yordamida tasvirlash barobarida, uning fe'l-atvoriga doir jihatlarni **(**adovat uning butun tanasidan, vujudidan ufurayotgandek,…puli bor – u, lekin hech kimga, hatto o'g'liga ham ko'zi qiymaydigan "juda hasis" deya**)** ifodalab o'tadi.

Yozuvchining "Maymun yetaklagan odam" hikoyasi kitobxonlarda katta qiziqish uyg'otdi. Asarda hayotda adashgan, umrini soxta shon-shuhrat, aldovlarga ishonib o'tkazgan, umri poyonida qarovsiz ahvolga tashlab qo'yilgan insonning samarasiz o'tgan hayotidan hikoya qilinadi. Adabiyotshunos U. Normatov bu haqda shunday yozadi."80 yillar oxirlarida tengdosh, umri asrning alg'ov-dolg'ovlari, bema'ni maqsadlar yo'lda o'tgan, adashgan odamning fojeiy qismati betakror tarzda ifoda etilgan edi. Hikoya qahramoni muyqalami tomonidan yaratilgan o'z ijodiy-ijtimoiy faoliyati ibtidosi va intihosiga daxldor ikki badiiy polotno - qorong'u to'qayzordan "nurafshon maskan"sari maymun yetaklab chiqayotgan navqiron shijoatkor yigit va qari maymun yetagida to'qayzor tomon qaytayotgan munkillagan chol surati, ayni o'sha ramziy-simvolik timsollar tashiydigan ma'noning teran va ko'lamdorligi, qahramon hayot yo'lining chuqur tahlili-bu asarni jahon novellistikasining eng yaxshi namunalari qatoriga qo'shish uchun izn beradi"[**2.B-39**]

"Maymun yetaklagan odam" hikoyasi tilida bir necha sahifalarga cho'zilgan qo'shma gaplarni uchratish mumkin. "Men keyingi yillardagi suratlar shunchaki qo'l chiqib ketmasligi uchun chizilgan bo'lsa kerak,- degan fikrga kelgan edim: bu yillardagi suratlarda huvillab qolgan qishloqlar va ko'chalar, egalari tashlab ketgan uylar, o'ziga chorlab turgan qabristonlar, o'lim isi kelib turgan har-xil qurollar, yig'layotgan ayollar va bolalar, biyday dalalar bosib ketgan o'laksaxo'r quzg'unlar, murdalar ortilgan aravalar, panjarali kameralar, yonib yotgan qishloq, qandaydir qo'rquvdan (xuddi "Pampeyaning so'nggi kuni"kabi) dong qotib qolgan olomon, sirli mahluqlar, yirtqich hayvonlar, yuzlariga har xil jondorlarning niqoblarini kiyib olgan odamlar (karnaval bo'lsa kerak - deb o'ylagandim), bazmu-jamshid qilib o'tirgan shotirlar, aroq navlari, turli xil taomlar, yalang'och ayollar, mahzuma qizlar, qovjirab qolgan gullarning suratlari aks etgan edi".[**3.B-9**] Nazar Eshonqulning "Maymun yetaklagan odam" asarida 251 ta so'z va qator tinish belgilari ishtirok etgan qo'shma gaplarni uchratamiz. Bunday murakkab va uzundan –uzoq qo'shma gaplarni tushunib anglash uchun uni qayta –qayta o'qishning o'zi ham yetarli emas, ular kitobxonni mantiqan fikrllashga , zukko va sezgir bo'lishga undaydi. Bunday lingvistik vositalar yordamida hikoyalarning emotsional, o'ziga xos qirralarini ko'rsatish hamda badiiy so'zga , takrorlar va yangi so'zlarning paydo bo'lishiga diqqat qaratiladi. Inson ruhiyatining

zaminida ob'ektiv, ommaviy ong osti kechinmalari yotadi. Shaxsiy, hususiy ong osti kechinmalari ham bu kechinmalar bilan hisoblashadi. Ommaviy ong osti o'zini insoniyat evolyusiyasining, diniy va milliy shakllanishning asorati sifatida namoyon qiladi. Har bir odam ongining eng past qavatlarida qatlam-qatlam bo'lib, nasldan-naslga o'tib kelayotgan e'tiqod, ishonch, tasavvurlar, hissiyotlar, mayllar asorati yashaydi. Bu mayl va kechinmalar, tasavvurlar inson idroki zaiflashgan, charchagan yoki inson ruhiyatini boshqarishga qurbi yetmay qolgan paytlarda o'zini turli ko'rinishlarda namoyon qiladi. Moddiy borliq odamni, uning istaklarini, mayllarini soddalashtiradi, xususiylashtiradi.

Badiiy adabiyotning asosiy vazifasi insonni tarbiyalash ekanligini yodimizda tutishimiz kerak. Hikoyalardagi voqealar tizimi insonlarni hech qachon atrofimizdagi insonlarga befarq bo'lmaslikka, loqaydlikning salbiy oqibatlaridan to'g'ri hulosa chiqargan holda sergak bo'lishga undaydi. Yozuvchi Nazar Eshonqul fikricha, adib nigohi sof ma'noda insonning qalb, go'zallik, olam bilan uyg'unlikni ko'ra olgan va shunga undagan nuqtai nazar sifatida paydo bo'ladi. Insonparvarlikka nimaiki yot bo'lsa, asar ruhi va poetikasi uni inkor qiladi. Insoniyatning xohish va istaklari-orzulari birinchi o'rinda turadi. Badiiy adabiyotning muhim vazifasi sifatida kitobxonni to'lqinlantirish, estetik zavq ulashishi hamda xalqchillik, tarbiyaviylik ruhi mazkur hikoyalarning ham mohiyatini tashkil qiladi. Shu jihatdan yozuvchi Nazar Eshonqul hikoyalari xalq diliga yaqin, sodda va ravon tilda yaratilgan asarlar sifatida qadrlidir.

Asarlarida, g'oyaviy – badiiy izlanishlarida psixologik tasvir va ilohiylik, mistika, mifopoetika kabi poetik vositalardan unumli foydalanadigan iste'dodli yozuvchi Nazar Eshonqulning yaratmalarida G'arb ilg'or adabiyoti namunalari bilan hamoxanglik jihatlarni ham kuzatish mumkin.

NATIJALAR VA MUHOKAMA. Avvalo, N.Eshonqul-ning jahon adabiyoti va falsafasini, mashhur adiblar ijod olami sirlarini naqadar mukammal bilishini ta'kidlash lozim. Bu borada uning mashxur olim, psixoanaliz tizimining asoschilaridan biri Zigmund Freyd merosini chuqur o'rganganligi e'tiborlidir. N.Eshonqul "Yangi asr san'atining barcha turlaridagi insonni psixologik tahlil qilish va tasvirlash usuli bevosita uning (Z.Freydning) nomi bilan bog'liqligini maxsus ta'kidlaydi. To'gri, Freyd yoki Yung kabi psixoanaliz asoschilarining kashfiyot deb atalgan izlanishlari Sharqda, ulug' bobokalonlarimiz Ibn Sino, Farobiy, Beruniy, U.Xayyom, F.Attor, A.Navoiy asarlarida turli shakllarda o'z tahlili va umumlashmasini topgan, ular ob'ektiv va sub'ektiv sabablarga ko'ra dunyo miqyosida to'la o'rganilmagan edi, xolos. N.Eshonqulning "Inson olamning, dunyoning, ilohiyatning, koinotning ramzi, timsoli, majozidir "- degan fikrlarida ulug' Sharq falsafasiga xos xulosalarining mohiyati mavjud. U davom etib, "Freyd inson botini, ruhiyati, ichki olami timsollar, ramzlar dunyosi ekanligini yana bir bor isbotladi. Adabiyot esa bu timsollarni talqin qilishga kirishdi"- deb uqtiradi.

N.Eshonqul Sharq falsafasini hamda adabiyotiniyam mukammal o'rgangan Zigmund Freyd, Karl Yung kabi G'arb faylasuflarining yangi zamon bag'rida interpretatsiya shaklida o'zlashtirgan psixoanaliz nazariyalari asosida badiiy adabiyotda shakllangan keng miqyosli psixologik tahlil poetikasini ancha mukammal egallaganligini o'z asarlarida namoyish etmoqda. Aslida psixologik tahlilning ustalari bo'lgan Amerika yoki Yevropaning atoqli yozuvchilarining boy tajribalari Freydlar, Yunglar uchun tadqiqotlarida ko'makdosh va manba bo'lib xizmat qilganligini ham hisobga olish lozim. Nazar Eshonqul jahon adabiyoti ilg'or namoyondalarini, modern adabiyoti yutuqlarini, milliy mumtoz adabiyot va xalq og'zaki ijodi namunalarini yaxshi biladi.

Bularning barisi uning betakror nasriy asarlarida o‘z ijobati, uslubiy jozibadorliklari bilan namoyon bo‘ladi.

Avvalo, Nazar Eshonqul milliy zaminda mustahkam turgan, milliy mumtoz adabiyot va boy folklor durdonalari asosida shakllangan yozuvchi hisoblanadi.

Har bir navqiron ijodkorning asarlarini yoki adabiy uslubini qalbiga yaqin olgan o‘zidan avvalgi so‘z san’atkorlari bilan ko‘p jihatdan mushtaraklik yoki adabiy hamohanglik jihatlari bo‘ladi. Nazar Eshonqul koreyalik adabiyotshunos olima professor In Gyong Ox bilan suhbatida u tilga olgan ijodkorlar e’tiborni tortadi:

“- Bugun siz qaysi o‘zbek adiblarining asarlarini dunyo tillariga tarjima qilish kerak deb hisoblaysiz?!

- Yuqorida aytganim Abdulla Qodiriyning “O‘tgan kunlar” romanini. Bu romanda XX asr g‘arb adabiyotiga xos modern xususiyatlari yo‘q. Bu sof Sharq romani. Unda o‘zbek harakteri, o‘zbek oila madaniyati, o‘zbek ruhi yaqqol ko‘rsatilgan. O‘zbekning qalbini, madaniyatini, maqsadini, istagini bilmoqchi bo‘lganlarga bu asar yetarli ma’lumot beradi.

Keyin Cho‘lponning “Kecha va kunduz”, Abdulla Qahhorning “Sarob”, Mirkarim Osimning asarlarini.

Zamonaviy nasrni nazarda tutyapman. Bugungi yozuvchilardan...

- Bugungi yozuvchilardan Sh.Xolmirzaev hikoyalari, M.M.Do‘stning “Lolazor”, A.A’zamning “Ro‘yo”, N.Norqobilov, Isajon Sultonning so‘nggi qissalarini... Boshqa yozuvchilarda ham tarjima qilsa bo‘ladigan asarlar bor. Gap bu asarlarni tushunib, uning ohori bilan tarjima qilishda. Masalan, men shubhasiz XX asr o‘zbek hikoyasining eng yaxshi namunalaridan biri deb biladigan M.M Do‘stning “Dashtu dalalarda” hikoyasini tarjima qilib bo‘lmasa kerak, deb o‘ylayman. Uning butun ohori o‘zbek tilida namoyon bo‘lgan. Boshqa tillarda bu ohori yo‘qolsa, hikoyaning hech qanday qiymati qolmaydi”.

XULOSA. Bu o‘rinda Nazar Eshonqulning taniqli o‘zbek hikoyanavisi Shukur Xolmirzaev nomini ehtirom bilan ta’kidlagani bejiz emas. Bu ikki yozuvchining badiiy mahorati tizimida psixologik tasvirda, lirik ko‘lam yoki hayot mashaqqati, fojiasi insoniy taqdirlar talqinida umumiylik, hamohanglik kuzatildi. Bu xarakterli fikr Nazar Eshonqulning aksariyat adabiy qahramonlari, Sh.Xolmirzaevning yuqoridagi “Hayot abadiy” hikoyasi qahramoni Nodir shaxsiyatiga ham tegishlidir. Binobarin inson psixologik dunyosi tragizm bilan bevosita bog‘liq.

Taniqli adabiyotshunos M.Baxtinning ko‘rsatishicha, mashhur ruhiyatshunos adib F.M.Dostoevskiy “roman yozish uchun haqiqatda muallif qalban boshdan kechirgan kuchli taassurotlardan bir yoki bir nechasini g‘amlab qo‘yish kerak”ligini qayd etgan ekan. Chunki, “ijodkor muallif qalbi boshdan kechirgan kuchli taassurotlar” payti kelib uning tuyg‘usiga zarb beradi va ijodkordan his etish, umumlashtirish va badiiy aks ettirishini talab etadi. Xuddi shu jarayonlarda ijodiy individuallik yozuvchi shaxsiga moslikni rad etmagan, unutmagan holda faol harakatga kirishib, faktlar, tafsilotlar, talqinlar, xarakterlar, taqdirlarni ma’lum maqsadga uyushtiradi, ya’ni ijodkor qalbi ular bilan reaksiyaga kirishadi.

Xulosa qilib shuni aytish mumkinki, iste’dodli adib Nazar Eshonqul insonning qalbini, o‘y-hayollarini, orzu-umidlarini, maqsadini, istagini teran anglagani holda barakali ijod qilib kelayotgan mahoratli ijodkor va yetuk qalb sohibidur.

Foydalanilgan adabiyotlar.

1. Nazar Eshonqul.”Men “dan mengacha. 2-kitob. T. 2018. 177-bet.
2. Umarali Normatov. Umidbaxsh tamoyillar.Toshkent.Ma’naviyat.2000.B-39.
3. Nazar Eshonqul. Maymun yetaklagan odam. T. Sharq. 2004. 9-bet.